

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan **32,9** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **108,5** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **78,0** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **11,7** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **9,7** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,66** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,6** %ga o'sishi bo'ldi.

Shu bilan birga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish **5,1** %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **4,8** %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarida **2,9** %ga o'sish kuzatilmoqda.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **2,2** marta), shuningdek, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (**172,4** %ga) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqaradigan sanoatda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021 yilning yanvar oyiga nisbatan **55,0** %), Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (**87,3** %), Elektr uskunalari ishlab chiqarish (**89,7**%) korxonalarida ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalarida (2021 yilning yanvar oyiga nisbatan **110,8** %) va Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar korxonalarida (**107,6** %) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan **iste'mol tovarlari** ishlab chiqarish o'sish sur'ati **113,5** foizni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **33,7** foizga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **36,4** foizni, noziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **63,6** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2020 yilning mos davriga **116,9** foizni, noziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa **111,6** foizni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar oyida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **0,9 %** ni tashkil etdi.

Joriy yilning dastlabki oyida narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, ularning narxlari o'rtacha **1,3 %** ga qimmatlashdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **0,5 %** ga, xizmatlar narxlari **0,7 %** ga oshdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga oylik yig'ma INI **0,54** foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d. deb yuritiladi), nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari hisobiga **0,17 f.d.** yuqoriladi. Xizmatlar tariflarining oshishi yig'ma ko'rsatkichga qo'shimcha **0,15 f.d.** ta'sir ko'rsatdi.

Joriy yilning birinchi oyidagi yig'ma INI umumiy o'sish sur'atida oziq-ovqat inflyatsiyasi ta'sirining hissasi umumiy ta'sir darajasining 62,4 % ini tashkil etdi. Ushbu davrda nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari oshishining ta'siri ulushi iste'mol narxlari o'zgarishlari kuzatuvlariga qamrab olingan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 20,0 % ini, xizmatlar ta'sirining ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

O'zR MIIT – 2018 bo'limari orasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hal qiluvchi inflyatsion omil bo'ldi va yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri bo'yicha yetakchilik qildi. Yanvar oyida ushbu bo'limga kiruvchi tovarlar 1,3 % ga qimmatlashib, buning hisobiga oylik yig'ma INI 0,51 f.d. yuqoriladi.

Ushbu bo'limga kiruvchi asosiy tovarlar guruhi orasida joriy yilning yanvar oyida narxlar oshishi bo'yicha yetkachilik an'anaviy tarzda meva-sabzavot mahsulotlariga tegishli bo'ldi. Shu tariqa, 2021 yilning dekabriga nisbatan mevalar va yong'oqlar narxlari 3,1 % ga, sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar 5,8 % ga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining oylik yig'ma INIga jami ta'siri 0,40 f.d.ni tashkil etdi. Shuningdek, donli ekinlar va yorma mahsulotlari (narxlarining oshishi darajasi 0,9 %, ta'siri 0,07 f.d.), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (0,4 % va 0,02 f.d.) narxlarining o'zgarishlari ham salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Boshqa guruhlarining jami ta'siri 0,04 f.d. ni tashkil etdi. Shu bilan birga, inflyatsiyani pasaytiruvchi omil sifatida go'sht mahsulotlari narxlarining arzonlashishi (o'rtacha 0,4 % ga) xizmat qilib, ularning hisobiga yig'ma INI 0,04 f.d. pasaydi.

Kiyimlar va poyafzal (narxlarining oshishi darajasi 0,9 %, ta'siri 0,10 f.d.) hamda sog'liqni saqlash sohasida (1,2 % va 0,08 f.d.) narxlarining o'zgarishlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Benzin (-3,5 %) va propan (-8,5 %) narxlarining pasayishi inflyatsiyani ushlab turuvchi omil sifatida xizmat qilib, oylik inflyatsiya darajasini 0,07 f.d. past bo'lishiga imkon yaratdi.

3. Qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi – 2022-yilning yanvar oylarida **6956,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **101,0 %**ni tashkil etdi. Qurilish

ishlarining umumiy hajmining 567,9 mlrd. soʻm yoki 8,2 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 5190,9 mlrd. soʻm yoki 74,6 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 1197,4 mlrd. soʻm yoki 17,2 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **18 426,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **15,8** % ga oʻsdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **23,5** % ga oʻsdi, bu esa umumiy savdo hajmining **72,1** % ulushiga toʻgʻri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **4,7** % ga koʻpaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **67,1** % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **9,4** % ulush bilan **1 726,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **3 498,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **1 164,2** mln. AQSh dollariga yoki **49,9** % ga koʻpaydi. Eksport hajmi **1 399,4** mln. AQSh dollariga (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **201,4** % ga oʻsish) va import **2 098,7** mln. AQSh dollariga oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **128,0** % ga oʻsdi).

Eksport tarkibida ham oʻsish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari) yogʻlar va mumlar oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **3,1** b. (0,6 mln. dollargacha), ichimliklar va tamaki **2,5** b. (2,8 mln. doll.), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari **2,0** b. (44,8 mln. doll.), turli xil tayyor buyumlar **28,4** % (67,8 mln. doll) hamda sanoat tovarlari **27,5** % (316,5 mln. doll.) koʻpaydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - **34,2** % (718,6 mln. doll.), sanoat tovarlari **19,4** % (407,3 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar) - **14,5** % (303,6 mln. doll.) toʻgʻri keladi.

6. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar oyida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **23,7** trln. soʻmni tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **16,9** % ga oʻsdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining oʻsishida moliyaviy xizmatlarning **35,1** % ga (koʻrsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining oʻsishidagi taʼsiri 7,8 punkt), transport xizmatlari **12,4** % ga (hajmining oʻsishidagi taʼsiri 2,8 punkt), savdo xizmatlari **10,6** % ga (hajmining oʻsishidagi taʼsiri 2,7 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **28,5** % ga (hajmining

o'sishidagi ta'siri 1,7 punkt), ta'lim xizmatlari **24,7 %** ga (hajmining o'sishidagi ta'siri 0,8 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**6,0** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**5,7** trln.so'm, **135,1 %**) va transport xizmatlari (**5,1** trln.so'm, **112,4 %**)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-fevral holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **533,4** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 467,1 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 10,8 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 11,9 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (19,8 foiz), Qashqadaryo (16,3 foiz), Xorazm (13,2 foiz), Navoiy (12,1 foiz), Surxondaryo (11,3 foiz), Andijon (10,4 foiz), Farg'ona (10,2 foiz), Buxoro (9,5 foiz) va Toshkent (9,4 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (18,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (13,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11,5 foiz), axborot va aloqa (10,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,6 foiz), sanoat (8,4 foiz), qurilish (6,2 foiz) hamda tashish va saqlash (5,9 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022-yil yanvar oyida respublikada 7,3 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6,9 mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 13 393 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 12,4 % ni yoki 1 474 tani tashkil etdi. Ulardan 6 014 tasi qo'shma korxonalar va 7 379 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.